

# O'zbek olimalari to'g'risida ma'lumot beradigan veb-sayt yaratildi

O'zbek ilm-fani o'zining shonli tarixiga ega. Va mana shu tarixni yaratishda o'zbek olima ayollarining o'rni beqiyos.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganiga 80 yildan oshdi. Biroq mana shu salkam bir asrlik fan tarixida o'zbek olimalari haqida to'la ma'lumot beradigan manba mavjud emas edi. Shu bois o'zbek olimalari to'g'risida ma'lumot beradigan veb-sayt yaratish zarurati tug'ildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Wonder Women xalqaro hamjamiyati hamkorligida Osiyo taraqqiyot banki ko'magi asosida birinchi marta "O'zbekiston olima ayollar" sayti yaratildi.

Saytning asosiy maqsadi o'zbek ilm-fanida o'ziga xos maktablar yaratgan olimalarni, zamonaviy fanda yangiliklar qilayotgan iste'dodli, ilmlmi ayollar faoliyatini jahonga tanitish, shu bilan birga mamlakatimiz fani rivoji uchun hissa qo'shib kelayotgan o'tmisht va hozirgi zamon olimalarimizni bugungi kun qahramonlari sifatida namoyish etishdir.

Saytning birinchi qismida tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan olima ayollar Hadicha Sulaymonova, Galina Pugachenkova, Maqsuda Xojanova singari ayollar hayoti, ilmiy izlanishlari tarixi kiritilgan.

Ikkinci qismi hozirda Fanlar akademiyasida faoliyat yuritayotgan olimalarimiz va besh nafar akademik ayollarga bag'ishlangan.

Saytda fizika-matematika, kimyo-biologiya va tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar fanlarda zamonaviy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan fan doktorlari va professor olimalarimiz haqida to'liq ma'lumotlar kiritilgan. Ularning hayoti, ilmiy faoliyati, barcha yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud hamda kelgusida ular mazmun va son jihatdan yanada boyitib boriladi.

Saytning jamiyat va fan hayotidagi ahamiyati ham mavjud. Ushbu platforma mazmunan ilmga hayajon va hayrat bilan kirib kelayotgan xotin-qizlarga ulkan ilmiy izlanishlari bilan tanilgan olimalar hayoti o'rnak, namuna, bir so'z bilan aytganda, model vazifasini o'taydi.

Qisqa qilib aytganda, bu sayt orqali o'zbek olimalari va ular olib borayotgan sermahsul izlanishlarni dunyoga ko'rsatishdir. Shu bilan birga ilmlmi, ma'rifatli olima qizlarni jamiyatga, ilm-fanga tayyorlab berishdir.

Saytga joylashtirish uchun olima ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar [monitoring@academy.uz](mailto:monitoring@academy.uz) elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Sayt bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

[www.womeninscience.uz](http://www.womeninscience.uz)